



O'zbekiston Ekologik
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR
RIVOJLANISHDA ILG'OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

2025-YIL 3-DEKABR

**Republican Scientific–Practical Conference
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED ENGINEERING
SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL
SUSTAINABILITY”**

3 DECEMBER 2025

**Республиканская научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА

10-MAXSUS SON

Toshkent — 2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 102 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

OLIY TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	7
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	10
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	12
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	15
Muxiddin Kalonov	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR	19
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI	23
Norboy G‘anievich Karimov	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	28
Sherzod Qurbonov	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	31
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI	34
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
YASHIL MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI.....	37
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	40
Алимова Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR.....	46
Abdullaev Elörbek Odiljon o‘gli	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE‘MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	50
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI	54
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO‘LLASH	58
Boltayeva Sitora Mirdjonovna	



HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI	62
Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH	66
Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI	70
Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	75
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI	78
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	82
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	85
Raximov Furqat Jalolovich	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI	89
Raximov Shoxrux Furqatovich	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	93
Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	97
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	



QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA



Muxiddin Kalonov

Navoiy davlat universiteti rektori
iqtisod fanlari doktori, professor.

Annotatsiya. Mazkur tezisda Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari va energetik xavfsizlikni mustahkamlash strategiyalari yoritiladi. Quyosh va shamol energetikasiga yo'naltirilayotgan yirik investitsiyalar, "yashil energetika yo'lagi" loyihasi, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologik modernizatsiya choralari hamda uglerod chiqindilarini qisqartirish bo'yicha milliy majburiyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Markaziy Osiyodan Yevropaga ekologik toza elektr energiyasi eksporti istiqbollari, energiya infratuzilmasini diversifikatsiya qilish va "yashil iqtisodiyot"ni kengaytirish bilan bog'liq imkoniyatlar hamda cheklovlar ilmiy baholanadi.

Kalit so'zlar: qayta tiklanuvchi energiya, yashil energetika, energetik xavfsizlik, investitsiyalar, shamol energetikasi, quyosh energetikasi, uglerod chiqindilari, Yevropa Ittifoqi hamkorligi.

Abstract. This thesis examines the strategic development of renewable energy in Central Asia, particularly in Uzbekistan, where extensive solar and wind energy projects are being implemented to strengthen national energy security and support sustainable growth. It analyzes the emerging "Green Energy Corridor" linking Central Asia with Europe, major foreign investment initiatives, technological modernization aimed at improving energy efficiency, and national commitments to reduce greenhouse gas emissions. The study also evaluates the prospects for exporting clean electricity to Europe, the diversification of energy infrastructure, and Uzbekistan's role in advancing regional and global green energy cooperation.

Key words: renewable energy, green energy, energy security, investments, wind power, solar power, carbon emissions, EU cooperation.

Аннотация. В тезисе рассматриваются стратегические направления развития возобновляемых источников энергии в Центральной Азии, особенно в Узбекистане, где реализуются масштабные проекты по солнечной и ветровой энергетике, модернизации энергосистем и снижению углеродного следа. Анализируются этапы формирования «зелёного энергетического коридора» между Центральной Азией и Европой, международные инвестиционные инициативы, меры по повышению энергоэффективности и перспективы экспорта экологически чистой электроэнергии. Подчёркивается роль Узбекистана в укреплении региональной энергетической безопасности и достижении целей устойчивого развития.

Ключевые слова: возобновляемая энергия, зелёная энергетика, энергетическая безопасность, инвестиции, ветровая энергия, солнечная энергия, углеродные выбросы, сотрудничество с ЕС.

Markaziy Osiyo energiya resurslariga boy va qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat 2030-yilgacha energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiyaning ulushini 30 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Bu maqsadga erishish uchun quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurishga katta investitsiyalar jalb etilmoqda.



O'zbekistonning geografik joylashuvi quyosh energiyasini ishlab chiqarish uchun nihoyatda qulay. Mamlakatda quyoshli kunlar ko'p bo'lib, quyosh radiatsiyasi darajasi yuqori, bu esa quyosh elektr stansiyalarining samarali ishlashini ta'minlaydi. Shamol energiyasi ham yirik salohiyatga ega. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg'i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) taxminan 100–150-yil foydalanishga yetadi. Shu sababli ko'plab davlatlar energiya xavfsizligini ta'minlash va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosatni kuchaytirib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston energetika tizimida ham energiya xavfsizligini mustahkamlash, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta'minlash yo'nalishida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan mamlakat yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va "yashil energetika" siyosatini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan — quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishni kengaytirish orqali iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash maqsad qilingan. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish orqali yoqilg'i balansi diversifikatsiya qilinib, an'anaviy yoqilg'i turlarining (tabiiy gaz, ko'mir) elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasi kamaytirilishi belgilangan. Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirish va sanoat hududlarining ekologik holatini yaxshilash vazifalari belgilab berilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri bo'lgan quyosh energiyasi bir qator rivojlangan davlatlarda keng joriy etilgan. Quyosh, shamol, gidro va geotermal energiyadan foydalanilganda, an'anaviy yoqilg'ilar kabi issiqxona gazlari ajralmaydi yoki juda kam miqdorda ajraladi. Bu iqlim o'zgarishining asosiy omili bo'lgan karbonat angidrid (CO₂) va boshqa issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishini kamaytiradi. Ko'mir va neft kabi yoqilg'ilar yoqilganda, havoga zararli moddalar, jumladan, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi va zarrachalar tarqaladi. Bu moddalar nafas olish yo'llari va yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bunday ifloslanishning oldini oladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari cheksiz bo'lib, ularning doimiy mavjudligi yer osti boyliklarini qazib olishga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va tabiiy ekotizimlarni asrashga yordam beradi. Shu bilan birga, soha tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligi sababli, quyosh panellarini o'rnatish, shamol elektr stansiyalarini qurish, ularga xizmat ko'rsatish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha malakali mutaxassislariga ehtiyoj oshib boryapti.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar mamlakatning energiya manbalariga qaramligini kamaytiradi. Bu borada "Acwa Power", "Masdar", "Linde", "Shanghai Environment", "Total Energies" kabi yetakchi kompaniyalar 8 milliard AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritib, "yashil" iqtisodiyot rivojiga muhim hissa qo'shmoqda. Mahalliy energiya manbalaridan foydalanish energiya ta'minotidagi uzilishlar va narxlarning o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni kamaytiradi. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Masalan, shamol elektr stansiyalari fermerlar va yer egalari qo'shimcha daromad manbai yaratishi mumkin.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish jarayoni oson emas. Energiya ishlab chiqarishning o'zgaruvchanligi (quyosh va shamol energiyasi ob-havo sharoitiga bog'liq), yuqori boshlang'ich investitsiyalar va infratuzilmaning yetarli emasligi kabi muammolar mavjud. Akkumulyatorlar va saqlash texnologiyalari ortiqcha energiyani saqlab, talab yuqori bo'lgan paytda undan foydalanish imkonini beradi. Bunda soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa rag'batlantiruvchi choralar investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish ekologik barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va energiya xavfsizligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Muammolar mavjud bo'lsa-da, texnologik rivojlanish ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkonini bermoqda. Har bir inson, hukumat, biznes va jamiyat qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish jarayonida o'z hissasini qo'shishi zarur.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Mintaqa nafaqat energiya resurslarini barqaror yetkazib bera oladigan, balki uglerod chiqindilarini qisqartirish bo'yicha global jarayonga munosib hissa qo'sha oladigan ishonchli hamkor sifatida shakllanmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirokida Kaspiy va Qora dengiz orqali Yevropaga "yashil strategik yo'lak" barpo etish loyihasida hamkorlik uchun yuqori salohiyat mavjud. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi o'zaro manfaatli energetik bog'liqlikning mustahkam asosini yaratadi. O'zbekiston Markaziy Osiyodan Yevropaga elektr energiyasi yetkazib berish bo'yicha xalqaro loyihani to'liq qo'llab-quvvatlagan.

Samarqandda shu yil may oyida o'tkazilgan Markaziy Osiyo–Yevropa Ittifoqi sammiti arafasida mazkur loyihani amalga oshirish bo'yicha tegishli bitim ratifikatsiya qilindi. Kaspiy dengizi tubi bo'ylab elektr kabelini o'tkazish bo'yicha Qozog'iston—O'zbekiston—Ozarbayjon qo'shma uch tomonlama loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, O'zbekiston 2030-yildan boshlab ortiqcha elektr energiyasini Yevropaga eksport qila oladi. Yevropaga "yashil energetika yo'lagi"ning qiymati 2 mlrd dollardan ortiq deb baholanmoqda. Loyiha doirasida 2030-yilga borib O'zbekiston Yevropa davlatlariga 10–15 mlrd kVt/soat elektr energiyasi eksport qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu yilning 1-iyul kuni Ozarbayjonning "Azerenerji" OAJ, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ



va Qozog'istonning "KEGOS" AJ vakillari Bokuda faoliyat yuritadigan "Green Corridor Alliance" MCHJ qo'shma korxonasini ta'sis etish va uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi bitimni imzoladi. Bu mazkur yo'nalishdagi ilk muhim bosqich bo'ldi.

Loyihaning amalga oshirilishi mamlakatlar uchun energetik xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va Yevropaga "yashil energiya" eksportini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, 2024-yil 13-noyabr kuni Ozarbayjonning Boku shahrida bo'lib o'tgan COP-29 xalqaro iqlim sammiti doirasida O'zbekiston, Qozog'iston va Ozarbayjon prezidentlari o'rtasida "yashil energiya"ni rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolangan edi. O'zbekistondan eksport qilinadigan elektr energiyasi Markaziy Osiyoning yagona energetika tizimi orqali Qozog'iston hududidan Kaspiy dengizi tubi bo'ylab kabel orqali Ozarbayjonga, u yerdan Gruziyaga, so'ng Qora dengiz tubi bo'ylab Ruminiya, Vengriya va Bolgariyaga yetkaziladi.

Ayni paytda O'zbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlar qayta tiklanuvchi energiya salohiyatini faol kengaytirmoqda. "Yashil" energetika va iqlim yo'nalishidagi loyihalarning amalga oshirilishi Markaziy Osiyoda "uglerod kreditlari" bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm korxonalarga ekologik toza texnologiyalarga investitsiyalar jalb qilish imkonini beradi, shuningdek, uglerod kvotalari savdosi bo'yicha xalqaro hamkorlik uchun qulay platforma yaratadi. Masalan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 14 ta yangi quyosh va shamol elektr stansiyalariga qo'shimcha ravishda umumiy quvvati 24 ming megavatt bo'lgan 50 dan ortiq shunday loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, yaqin besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish maqsad qilingan. Bu issiqxona gazlari chiqindilarini qariyb 16 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi va O'zbekistonning Parij kelishuvi doirasida issiqxona gazlari chiqindisini 35 foizga kamaytirish bo'yicha olgan majburiyatlarining belgilangan muddatidan oldin bajarilishiga sharoit yaratadi. Yana bir muhim yo'nalish energetika tizimlarini modernizatsiya qilish bo'lib, bu ularning samaradorligini oshiradi va uglerod izini kamaytirishga xizmat qiladi. Kompaniyalar "yashil" energiya, chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasini saqlash, "yashil" vodorod ishlab chiqarish kabi ilg'or sohalarda yangi loyihalarni boshlayotgani alohida e'tiborga molik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yilning 23-iyun kuni yirik sanoat korxonalarini "yashil" energiya bilan ta'minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishuvi chog'ida mamlakatimizda muqobil energiya quvvatlarini kengaytirish masalasiga yana bir bor alohida to'xtaldi. Qisqa davr ichida bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib kelishi natijasida yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi avvalgi 59 milliarddan hozirda 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. 2030-yilga borib yurtimiz aholisi 41 milliondan, iqtisodiyot hajmi esa 200 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Tabiiyki, bunday o'sish elektr energiyasiga qo'shimcha talab tug'diradi. Shu sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengroq ishga solish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda.

Xususan, yil yakuniga qadar 12 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi, 12 ta energiya saqlash tizimi ishga tushiriladi. Ularga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5 milliard dollardan ziyodni tashkil etib, ushbu quvvatlar salkam 9 milliard kilovatt-soat energiya ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, bu yil umumiy qiymati 7 milliard 200 million dollarlik yana 11 ta loyiha qurilishi boshlanadi.

Energiyani faqat ishlab chiqarish emas, balki tejash ham muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari tomonidan energiya isrofini kamaytirish, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida tejamkor uskunalar o'rnatish vazifasi qo'yilgan. Yurtimizda jami elektr iste'molining uchdan bir qismi 18 ta tarmoqqa to'g'ri keladi. Masalan, suv xo'jaligidagi nasoslarga yiliga 6,5 milliard kilovatt-soat elektr sarflanmogda. Shu bois 12 ta yirik nasosni modernizatsiya qilib, har biriga 75–100 megavattli quyosh stansiyasi va 50 megavattli saqlash qurilmasi o'rnatish belgilandi. Natijada mazkur nasoslarning yillik elektr sarfi 2 milliard kilovatt-soatga kamayib, 4,5 milliard kilovatt-soatga tushadi.

Neft-gaz korxonalarida ham 240 megavattli quyosh stansiyasi va 300 megavattli saqlash qurilmalari o'rnatilib, yiliga kamida 600 million kilovatt-soat elektr olish imkoniyati mavjud. 2035-yilda yurtimizda elektr iste'moli 121 milliard kilovatt-soat bo'lishi hisob-kitob qilingan. Shu bois uzoq muddatni ko'zlab, energetikaning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish choralari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2030-yilga borib jami generatsiyada "yashil" energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu borada eng istiqbolli yo'nalishlar suv va atom energiyasidan foydalanishdir.

Xususan, 2025–2026-yillarda umumiy quvvati 167 megavatt bo'lgan 2 983 ta mikro GES barpo etilishi belgilangan. Ushbu loyihalar natijasida yiliga 500 million kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqariladi, 151 million metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinadi. Qurilish davrida 1 200 nafar, loyihalar ishga tushirilgach esa 520 nafar fuqaro bandligi ta'minlanadi. Bu yil quvvati 65 megavatt bo'lgan 1 185 ta mikro GES barpo etilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning aksariyati tadbirkorlar tashabbusi bilan ishga tushiriladi.

Kelgusida atom energiyasi ham bazaviy manbalardan biriga aylanishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda yurtimizda kichik quvvatli atom elektr stansiyasi qurish loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Bo'lajak stansiyaning



har bir bosqichi — loyihalashtirishdan tortib yakuniy ishga tushirilgungacha — Xalqaro atom energiyasi agentligining qat'iy nazorati ostida bo'ladi, jahonning ilg'or tajribalari va xavfsizlik talablari to'liq tatbiq etiladi.

Tan olish kerak, O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishga o'tish va iste'moldan ortgan energiyani eksport qilish yo'nalishida dadil qadamlar tashlamoqda. Xususan, infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni kengaytirish, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi qonunchilikni Yevropa Ittifoqi standartlariga moslashtirish ishlari izchil olib borilmoqda. Ushbu vazifalar izchil amalga oshirilsa, kelajakda O'zbekiston xavfsiz, arzon va ekologik toza "yashil" energiya salohiyatiga ega mamlakatlardan biriga aylanishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023-yildagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6385716>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.07.2020-yildagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 452-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4909794>
3. International Energy Agency. World Energy Outlook 2023. – Paris: IEA Publications, 2023. – 386 p.
4. BP. Statistical Review of World Energy 2023. – London: BP Press, 2023. – 70 p.
5. Renewable Energy Policy Network for the 21st Century. Renewables 2023 Global Status Report. – Paris: REN21 Secretariat, 2023. – 340 p.
6. UNDP Uzbekistan. Renewable Energy Development in Uzbekistan: Policy Review. – T.: UNDP Uzbekistan, 2022. – 112 p.
7. World Bank. Uzbekistan Energy Sector Transformation: Diagnostics and Reform Roadmap. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. – 148 p.
8. Asian Development Bank. Uzbekistan: Clean Energy Transition Program. – Manila: ADB Publications, 2022. – 158 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746